

Spontan dialogik nutqda xushmuomalilik strategiyalarining gender aspekti

Xakimova Zumradxon Qudratali qizi

zumradkhon.khakimova@mail.ru

Tayanch doktorant,
Farg'ona davlat universiteti

Annotatsiya *Ushbu maqolada spontan dialogik nutqda xushmuomalilik strategiyalarining genderga oid xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda ayollar va erkaklar nutqidagi ijobiy hamda salbiy xushmuomalilik strategiyalarining qo'llanish darajasi, ularning muloqotdagi ijtimoiy va pragmatik vazifalari o'rganilgan. Maqolada Brown va Levinson (1987), Leech (1983), Holmes (2013), Tannen (1990) kabi tilshunoslarning nazariy qarashlariga tayanilgan. Gender lingvistikasi doirasida olib borilgan tadqiqotlarda ayollar va erkaklar o'zaro muloqotda farqli nutqiy strategiyalardan foydalanishi qayd etilgan. Ushbu maqolada Leech tomonidan ilgari surilgan xushmuomalilik nazariyasiga tayangan holda, erkak va ayol so'zlovchilarning tabiiy muloqot davomida "ijtimoiy yuzni saqlash" (face-saving) hamda ijtimoiy uyg'unlikni ta'minlashga qaratilgan nutqiy usullari tahlil qilinadi. Tadqiqot metodlari sifatida spontan suhbatlar korpusidan olingan misollar tahlili qo'llanilgan. Maqolada ayollar xushmuomalilikka ko'proq urg'u berishi, erkaklar esa ko'proq to'g'ridan-to'g'ri strategiyalardan foydalanishi aniqlangan. Xulosa o'rnida, genderga xos xushmuomalilik strategiyalari muloqot ishtirokchilarining ijtimoiy maqomi, vaziyatga munosabati va shaxsiy til madaniyatiga bog'liq ekani ta'kidlanadi. Tadqiqot natijalari genderga oid kommunikativ farqlarni chuqurroq tushunishga yordam beradi hamda tilshunoslik, pragmatika va ijtimoiy psixologiya sohalarida qo'llanilishi mumkin bo'lgan nazariy va amaliy xulosalarni taklif etadi.*

Kalit so'zlar *Dialog, spontan dialogik diskurs, xushmuomalilik, gender, muloqot*

Гендерный аспект стратегий вежливости в спонтанной диалогической речи

Хакимова Зумрадхон Кудратали кызы

zumradkhon.khakimova@mail.ru

Докторант,
Ферганский государственный университет

Аннотация *В данной статье анализируются гендерные особенности стратегий вежливости в спонтанной диалогической речи. Анализируются особенности употребления мужчинами и женщинами стратегий позитивной и негативной вежливости, а также их прагматические и социальные функции. Исследование опирается на труды Брауна и Левинсона (1987), Лича (1983), Холмс (2013) и Таннен (1990). В рамках гендерной лингвистики отмечается, что женщины и мужчины используют различные речевые стратегии в процессе общения. На основе теории вежливости, предложенной Личем, рассматриваются способы речевого взаимодействия мужчин и женщин, направленные на «сохранение социального лица» (face-saving) и обеспечение социального согласия в процессе естественного диалога. В качестве метода исследования используется анализ примеров из корпуса спонтанных разговоров. Установлено, что женщины чаще придают значение вежливости, тогда как мужчины склонны использовать более*

прямолинейные стратегии. В заключение подчеркивается, что гендерные особенности вежливости зависят от социального статуса участников, их отношения к ситуации и индивидуальной речевой культуры. Результаты исследования способствуют более глубокому пониманию гендерных различий в коммуникации и предлагают теоретические и практические выводы, применимые в лингвистике, прагматике и социальной психологии.

Ключевые слова Диалог, спонтанный диалогический дискурс, вежливость, гендер, коммуникация

Gender aspect of politeness strategies in spontaneous dialogical speech

Khakimova Zumradkhon Kudratoli qizi

zumradkhon.khakimova@mail.ru

Phd student,

Fergana State University

Annotation *This article analyzes the gender-related features of politeness strategies in spontaneous dialogic speech. It examines how men and women differ in using positive and negative politeness strategies and how these reflect social and pragmatic functions in communication. The study is based on the theoretical framework of Brown and Levinson (1987), Leech (1983), Holmes (2013), and Tannen (1990). the framework of gender linguistics, it is noted that women and men use different speech strategies during communication. Based on Leech's politeness theory, the study examines the ways in which male and female speakers employ speech methods aimed at "face-saving" and maintaining social harmony in natural dialogue. The research method involves analyzing examples from a corpus of spontaneous conversations. It was found that women tend to emphasize politeness more, while men are more likely to use direct strategies. In conclusion, it is highlighted that gender-specific politeness strategies depend on the social status of the interlocutors, their attitude towards the situation, and individual language culture. The results contribute to a deeper understanding of gender-based communicative differences and offer theoretical and practical insights applicable in linguistics, pragmatics, and social psychology.*

Keywords *Dialogue, spontaneous dialogic discourse, politeness, gender, communication*

Kirish

Til va gender o'rtasidagi munosabat masalasi zamonaviy tilshunoslik, sotsiolingvistika va pragmatika fanlarining eng muhim va ko'p qirrali tadqiqot yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Inson jamiyatda nafaqat biologik jins, balki ijtimoiy-madaniy jihatdan shakllangan gender roli bilan ham namoyon bo'ladi. Shu sababli, til tizimi va muloqot

jarayonida gender omili insonlarning o'zaro aloqasi, ularning fikrni ifodalash usuli, nutq ohangi, so'z tanlovi va kommunikativ maqsadlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Gender lingvistika fanining shakllanishi 1970-yillarda ingliz tilshunosligida boshlangan bo'lib, keyinchalik bu yo'nalish til va jamiyat o'rtasidagi murakkab ijtimoiy munosabatlarni, shuningdek, erkaklar va ayollarning nutqiy

xatti-harakatlaridagi farqlarni aniqlashga qaratilgan keng ilmiy maktabga aylandi. Til – bu nafaqat aloqa vositasi, balki ijtimoiy tuzilmaning aksidir. Har bir madaniyatda soʻzlashuv odatlari, muloyimlik darajasi, ifoda shakllari, hattoki nutqdagi sukutning oʻzi ham ijtimoiy jins bilan bogʻliq ierarxik tizimlarni aks ettiradi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, erkaklar va ayollar muloqotda bir xil grammatik yoki leksik vositalardan foydalansalar ham, ularning pragmatik maqsadi va ijtimoiy strategiyasi turlicha boʻlishi mumkin. Til va gender oʻrtasidagi bu oʻzaro aloqadorlik nafaqat muloqot madaniyatini, balki jamiyatdagi ijtimoiy rollar va qadriyatlar tizimini ham aks ettiradi. Shu bois, til orqali genderning ijtimoiy mohiyatini oʻrganish – bu faqat grammatik yoki leksik masala emas, balki madaniy identifikatsiya, ijtimoiy tenglik va nutq etikasi masalalarini ham qamrab oluvchi keng sotsiopragmatik muammodir. Spontan dialogik nutqda bu jarayon yanada yaqqol namoyon boʻladi, chunki bunday muloqot tabiiy, tayyorgarliksiz sharoitda yuz beradi va soʻzlovchining haqiqiy ijtimoiy, hissiy hamda madaniy pozitsiyasini ochib beradi. Shu sababli, til va gender oʻrtasidagi oʻzaro taʼsirni oʻrganish zamonaviy lingvistikaning nafaqat nazariy, balki amaliy yoʻnalishlarida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Til va gender oʻrtasidagi munosabat soʻnggi oʻn yilliklarda lingvistikaning muhim yoʻnalishlaridan biri boʻlib kelmoqda. Gender lingvistika insonlarning ijtimoiy roli, identifikatsiyasi va nutqdagi xulqini oʻrganadi. Xushmuomalilik esa bu jarayonda ijtimoiy uygʻunlik va oʻzaro hurmatni taʼminlovchi pragmatik mexanizmdir. Brown va Levinson (Brown & Levinson, 1987) muloyimlikni insonning ijtimoiy “yuzi”ni himoya qiluvchi strategiyalar majmui sifatida talqin etadilar. Leech (Leech, 1983) esa muloyimlikni muloqot etikasi asosiy tamoyillaridan biri sifatida belgilaydi. Shu asosda gender farqlari xushmuomalilikning strategik qoʻllanishida oʻz aksini topadi: ayollar koʻproq ijobiy aloqani mustahkamlashga yoʻnaltirilgan, erkaklar esa masofani saqlovchi strategiyalarni tanlaydilar.

Ushbu maqolada spontan dialogik diskurs (yaʼni oldindan rejalashtirilmagan, tabiiy muloqot) tahlil qilinib, unda xushmuomalilikning genderga xos koʻrinishlari aniqlanadi.

Adabiyotlar tahlili va Metodlar

Xushmuomalilikning genderga oid xususiyatlari tilshunoslikda sotsiopragmatika, sotsiolingvistika va gender lingvistika yoʻnalishlari kesishgan nuqtada oʻrganiladi. Gender lingvistikada xushmuomalilikning ahamiyati shundaki, u erkak va ayol soʻzlovchilarning nutqdagi ijtimoiy roli, munosabat ifodasi va muloqot uslubidagi farqlarni aniqlash imkonini beradi. Xushmuomalilik (politeness) – bu nafaqat madaniy yoki ijtimoiy norma, balki ijtimoiy identifikatsiya va kommunikativ strategiyaning koʻzgusidir. Erkaklar va ayollar muloqotda bir xil grammatik vositalardan foydalansalar ham, ularning xushmuomalilikni ifodalashdagi usullari, maqsadi va intensivligi koʻpincha farqlanadi. Gender lingvistika nuqtai nazaridan xushmuomalilik ijtimoiy tenglik va muloqot madaniyatining muvozanatini taʼminlaydi. U muloqot jarayonida shaxsning nafaqat til kompetensiyasini, balki ijtimoiy sezgirlik, empatiya va kontekstni toʻgʻri baholash qobiliyatini ham namoyon etadi.

Shuningdek, xushmuomalilik strategiyalari orqali soʻzlovchilar oʻz gender roli va madaniy qadriyatlarini ong osti darajasida aks ettiradilar. Shu sababli, xushmuomalilikni gender nuqtai nazardan oʻrganish – bu faqat til shaklini emas, balki jamiyatdagi ijtimoiy struktura, hokimiyat munosabatlari va kommunikativ muvozanatni anglashga xizmat qiladi. Bu boradagi nazariy asoslar Goffman (1967) ning “yuz” (face) konsepsiyasiga, Brown va Levinson (1987) ning Politeness Theory modeliga hamda Leech (1983) ning Pragmatika tamoyillariga tayanadi. Ushbu nazariyalar muloqotda soʻzlovchining ijtimoiy obroʻsini saqlash, hurmat va hamkorlikni taʼminlash mexanizmlarini tushuntiradi. Holmes (2013) va Tannen (1990) tadqiqotlari genderning xushmuomalilik strategiyalariga bevosita

ta'sirini ochib beradi – ayollar muloqotda ijobiy xushmuomalilik, ya'ni hamdardlik, qo'llab-quvvatlash va kelishuv strategiyalarini ko'proq qo'llasalar, erkaklar ko'proq salbiy xushmuomalilik, ya'ni mustaqillikni saqlash, to'g'ridan-to'g'ri fikr bildirish va masofa ushlab gapirishga moyil bo'ladilar. Tadqiqot metodologiyasi nazariy-pragmatik tahlil, diskursiv yondashuv va sotsiolingvistik tahlil tamoyillariga asoslanadi. Tahlil jarayonida Brown va Levinson (Brown & Levinson, 1987) ning "yuzni saqlash" strategiyalari, Leech (1983) ning muloyimlik maksimlari hamda Holmes (2013) ning gender va nutq etikasi haqidagi konsepsiyalari uyg'unlashtirildi.

Xushmuomalilik hodisasini o'rganishda bir nechta metodologik yondashuvlar qo'llaniladi, ularning har biri muloqotdagi ijtimoiy, madaniy va pragmatik omillarni turlicha yoritadi. Eng samarali usullardan biri bu lingvopragmatik tahlil bo'lib, u nutq birligining yuzaki shakliga emas, balki so'zlovchi maqsadi, niyat va kontekstga e'tibor qaratadi. Ushbu metod orqali so'zlovchi qanday strategiyalar yordamida "yuzni saqlash" yoki "tahdidni yumshatish"ga erishishini aniqlash mumkin (Brown & Levinson, 1987). Shuningdek, diskursiv tahlil (discourse analysis) xushmuomalilikni o'rganishda muhim ahamiyatga ega. Bu metod muloqotni izchil jarayon sifatida tahlil qiladi, ya'ni xushmuomalilik strategiyalari qanday qilib muloqot davomida shakllanadi, o'zgaradi va ijtimoiy rollarga bog'liq ravishda qo'llaniladi, degan savollarga javob beradi. Diskursiv tahlil ayniqsa spontan dialogik nutqda xushmuomalilikning tabiiy ifodasini aniqlash uchun qulaydir. Bundan tashqari, konversatsion tahlil (conversation analysis) xushmuomalilikni o'rganishda amaliy usul sifatida qo'llaniladi. Ushbu metod muloqotning tuzilmasini – so'z navbati (turn-taking), suhbatdagi tuzatishlar (repairs), pauzalar, javob shakllari kabi elementlarni o'rganib, xushmuomalilik strategiyalarining real nutqdagi ishlash mexanizmini ochib beradi. Sotsiolingvistik tahlil esa xushmuomalilikni ijtimoiy kontekstda, ya'ni

so'zlovchining yoshi, jinsi, mavqei, madaniy muhitiga bog'lab o'rganadi. Bu yondashuv yordamida gender, madaniyat va ijtimoiy tabaqa xushmuomalilik darajasiga qanday ta'sir ko'rsatishi tahlil qilinadi (Holmes, 2013). Ba'zi tadqiqotchilar (Leech, 1983) shuningdek pragmatik tamoyillar tahlili (pragmatic principles analysis) ni ham qo'llaydilar, unda takt, maqtab gapirish, rozilik va kamtarlik maksimlari asosida xushmuomalilikning etik va muloqotdagi ahamiyati o'rganiladi. Deskriptiv-analitik va kontekstual tahlil metodlari yordamida erkak va ayol so'zlovchilarning spontanik muloqotdagi nutqiy xatti-harakatlari o'rganilib, ularning xushmuomalilik strategiyalari ijtimoiy rol, kommunikativ maqsad va madaniy qadriyatlarga ko'ra farqlanishi aniqlanadi.

Natijalar va Muhokama

Ayollar spontanik muloqotda ko'pincha ijobiy xushmuomalilik strategiyalarini qo'llaydilar. Ular suhbatdoshni rag'batlantirish, hamdardlik bildirish yoki o'z fikrini yumshatish orqali ijtimoiy yaqinlikni mustahkamlashga intiladilar. Ayollar nutqida ijobiy xushmuomalilik (positive politeness) strategiyalari ustun bo'lishining asosiy sababi – ularning muloqotdagi asosiy maqsadi ijtimoiy uyg'unlik, yaqinlik va hissiy aloqani saqlash bilan bog'liq. Pragmatika nuqtai nazaridan, ayollar ko'proq "suhbatdoshni qo'llab-quvvatlash" va "hamfikir muhitni yaratish"ga intiladilar (Holmes, 2013; Tannen, 1990). Quyida ayollar nutqidan misollar keltiramiz:

Ayol A: *"Men o'sha seminarni unchalik tushunmadim."*

Ayol B: *"Ha, men ham bir oz qiynalдим, lekin birgalikda ko'rib chiqamiz, to'g'rimi?"*

Bu misolda ayol B ijobiy xushmuomalilikning hamdardlik va hamkorlik shaklidan foydalanadi. U suhbatdoshni tanqid qilmaydi, balki o'zini unga teng qo'yadi – bu "yuzni saqlash" (face-saving) strategiyasidir.

Ayol: *"Kechirasiz, sizning fikringizni eshitish men uchun juda foydali bo'ldi."*

Bu holatda ayol hurmat va minnatdorchilik orqali ijobiy xushmuomalilikni

ifodalayapti. Bunda u suhbatdoshni qadrlash orqali ijtimoiy yaqinlikni mustahkamlaydi. Ayollar nutqidagi bunday strategiyalar, Leech (1983) ning "approbation maxim" tamoyiliga muvofiq, boshqalarni maqtash va qo'llab-quvvatlash orqali muloqotdagi uyg'unlikni ta'minlaydi. Quyida asarlardan olingan parchalar orqali misollar keltiramiz. Masalan, Jeyn Ostenning "Pride and Prejudice" ("G'urur va G'araz") romanida ayol personajlar muloqotda xushmuomalilik orqali ijtimoiy uyg'unlikni saqlashga intiladilar. Elizabet Bennet suhbat davomida bevosita tanqid o'rniga yumshatuvchi iboralardan foydalanadi:

"I could have not thought you capable of such behaviour, but perhaps I was mistaken."

Bu gapda Elizabet to'g'ridan-to'g'ri ayblov o'rniga "perhaps I was mistaken" (balki men adashgandirman) deb, o'z fikrini yumshatadi. Bu – positive politenessning aniq ko'rinishi bo'lib, so'zlovchi suhbatdoshning "yuzini saqlash"ga harakat qilmoqda. Shunga o'xshash holatni Virginia Woolfning "Mrs. Dalloway" romanida ham kuzatish mumkin. Asarda ayol qahramonlar o'zaro muloqotda har doim "tinchlik va samimiyatni saqlash"ga intiladilar. Masalan:

"Oh, you must forgive me – I didn't mean to upset you."

Bu ifoda Leech (1983) tomonidan ta'riflangan tact maximga mos keladi – ya'ni so'zlovchi o'z xatari bilan boshqaga zarar yetkazmaslikka intiladi.

Erkaklar esa ko'proq salbiy xushmuomalilik (negative politeness) strategiyalariga moyil bo'ladilar, chunki ular muloqotda mustaqillik, masofa va o'z pozitsiyasini himoya qilishni muhim deb biladilar (Brown & Levinson, 1987). Erkaklarning nutqida "to'g'ridan-to'g'ri fikr bildirish", "tanqidni yashirmaslik" yoki "buyruqli ohangda gapirish" holatlari ko'proq kuzatiladi. Bu holatlar, bir qarashda, impolaytlikdek tuyulsa-da, aslida ular uchun ob'ektivlik va kuchlilik belgisi sifatida qabul qilinadi.

Erkak A: *"Bu masalani shunday qilib hal qilaylik, boshqasi vaqtini oladi."*

Erkak B: *"Xo'p, o'ylab ko'ramiz, lekin men boshqa variantni afzal deb bilaman."*

Bu misolda har ikki so'zlovchi salbiy xushmuomalilikni qo'llamoqda: ular bir-birining fikrini inkor qilmayapti, lekin mustaqil qaror va masofani saqlab turibdi.

Erkak: *"Sizningcha, bu unchalik to'g'ri emas, to'g'rimi?"*

Bu savolda yumshatuvchi so'zlar ("sizningcha", "to'g'rimi") ishlatilgan bo'lsa-da, u tanqidni bilvosita shaklda yetkazmoqda. Bu – salbiy xushmuomalilikning klassik ko'rinishi. Brown va Levinson (1987) nazariyasiga ko'ra, erkaklar muloqotda "negative face", ya'ni o'z erkinligini va fikr mustaqilligini saqlashga intiladilar. Shu sababli, ular ayollar singari hissiy yaqinlikni ifodalashga kamroq e'tibor qaratadilar. Erkaklar nutqidagi salbiy xushmuomalilik strategiyalarini esa ko'plab adabiy asarlarda kuzatish mumkin. Masalan, Ernest Hemingwayning "The Old Man and the Sea" asarida qahramon Santyago muloqotda kamsi, ammo qat'iy:

"You have to take it like a man. Don't complain."

Bu jumlada so'zlovchi buyruqli ohangda gapirmoqda, lekin bu tajovuz emas – balki erkaklik va kuchlilikni ifodalovchi madaniy norma. Bunda negative politeness strategiyasi – hissiyotlarni yashirish va masofani saqlash – yaqqol namoyon bo'ladi. Yana bir misol sifatida George Orwellning "1984" asaridagi Winston obrazini keltirish mumkin. U muloqotda ehtiyotkor, to'g'ridan-to'g'ri fikr bildirishdan qochadi:

"If you mean that I am wrong, perhaps you are right."

Bu yerda perhaps (balki) so'zi orqali salbiy xushmuomalilik amalga oshmoqda – so'zlovchi o'z fikrini bildirish bilan birga, suhbatdoshining obro'sini saqlab qolishga harakat qilmoqda.

Tahlil natijalariga ko'ra, ayollarda ijobiy xushmuomalilik strategiyalari ko'proq emotsional yaqinlik, qo'llab-quvvatlash va ijtimoiy hamkorlikni kuchaytirishga xizmat qilsa, erkaklarda salbiy xushmuomalilik mustaqillikni, muloqotdagi ierarxiyani va fikr

erkinligini saqlashga yo'naltirilgan. Shu sababli, gender farqlari til orqali nafaqat muloqot uslubida, balki ijtimoiy o'zaro ta'sirning strategik mexanizmlarida ham aks etadi. Ayollar o'zaro muloqotda ijobiy ijtimoiy yaqinlikni saqlovchi strategiyalarga tayanadilar, erkaklar esa masofani saqlash va o'z pozitsiyasini himoya qilishga qaratilgan usullardan foydalanadilar. Shuningdek, ayollar ko'proq kechirim, minnatdorchilik, rag'bat orqali ijtimoiy uyg'unlikni ta'minlasalar, erkaklar yumshatish, qayta ifoda, va modal shakllar orqali yuzni himoya qiladilar. Bu farqlar ijtimoiy rollar, madaniy stereotiplar va kommunikativ maqsadlarning o'zgaruvchan tabiati bilan bog'liq. Ushbu kuzatishlar Brown va Levinsonning fikrlarini tasdiqlaydi: har bir muloqotda so'zlovchilar o'zining ham, suhbatdoshining ham "yuzini" (face) saqlashga harakat qiladilar, ammo gender omili bu jarayonda strategik farqlanishga sabab bo'ladi. Gender lingvistika nuqtai nazaridan, ayollar ijobiy xushmuomalilikni ko'proq hissiy yaqinlik, empatiya va hamkorlikni kuchaytirish uchun ishletsalar, erkaklar salbiy xushmuomalilikni muloqotda mustaqillik va hokimiyat pozitsiyasini saqlash vositasi sifatida qo'llaydilar (Tannen, 1990; Holmes, 2013). Shunday qilib, xushmuomalilik strategiyalaridagi bu farqlar nafaqat lingvopragmatik, balki madaniy va ijtimoiy psixologik mohiyatga ham ega.

Xulosa

Spontan dialogik nutq tahlili shuni ko'rsatadiki, xushmuomalilik strategiyalari genderga qarab farqlanadi. Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, xushmuomalilik strategiyalari nafaqat til tizimining, balki insonlar o'rtasidagi ijtimoiy va psixologik munosabatlarning ham ajralmas qismidir. Spontan dialogik nutqda xushmuomalilik

strategiyalari tabiiy, tayyorgarliksiz sharoitda yuzaga kelgani sababli, so'zlovchining shaxsiy, madaniy va gender xususiyatlarini eng real tarzda aks ettiradi. Gender nuqtai nazaridan olganda, xushmuomalilik muloqotdagi tenglik va ijtimoiy muvozanatni saqlashda vositachilik rolini bajaradi.

Xushmuomalilik strategiyalaridagi gender tafovutlari muloqotning maqsadi va ijtimoiy kontekstiga bevosita bog'liqdir. Mazkur tadqiqot xushmuomalilikni o'rganishda lingvopragmatik, konversatsion va sotsiolingvistik metodlarning uyg'un qo'llanishi samarali ekanini ko'rsatdi. Ular yordamida so'zlovchilarning niyati, ularning "yuzni saqlash"ga qaratilgan strategiyalari, hamda genderga xos kommunikativ o'ziga xosliklar aniqlanadi. Bu yondashuv tilshunoslikda xushmuomalilikni nafaqat nutqiy hodisa, balki madaniy va ijtimoiy fenomen sifatida baholash imkonini beradi. Xulosa qilib aytganda, xushmuomalilik strategiyalarining gender aspektini o'rganish til va jamiyat o'rtasidagi murakkab aloqalarni chuqurroq anglash, shuningdek, zamonaviy muloqot madaniyatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu yo'nalish bo'yicha keyingi tadqiqotlar turli madaniyatlarda xushmuomalilikning milliy o'ziga xosliklarini va ularning gender tizimidagi o'rni va ta'sirini yanada kengroq yoritishga xizmat qiladi. Ayollar ko'proq ijobiy strategiyalar orqali yaqinlikni saqlashga intiladilar, erkaklar esa salbiy strategiyalar yordamida mustaqillikni himoya qiladilar. Biroq har ikkala holatda ham xushmuomalilikning maqsadi bir — ijtimoiy uyg'unlikni ta'minlash va yuzni saqlash. Kelgusidagi tadqiqotlarda turli yosh, madaniyat va ijtimoiy mavqedagi respondentlar nutqi asosida gender farqlarining yanada chuqurroq tahlili kutilmoqda.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Brown, P., & Levinson, S. C. (1987). *Politeness: Some universals in language usage* (2nd ed.). Cambridge University Press.

2. Leech, G. (1983). *Principles of pragmatics (1st ed.)*. Longman.
3. Holmes, J. (2013). *An introduction to sociolinguistics (4th ed.)*. Routledge.
4. Tannen, D. (1990). *You just don't understand: Women and men in conversation (1st ed.)*. HarperCollins.
5. Goffman, E. (1967). *Interaction ritual: Essays on face-to-face behaviour (1st ed.)*. Anchor Books.